



## XORIJLIKARGA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA YONDASHUVLAR

S.Imomova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi E-mail: saidaimomova24@gmail.com +998944542611

**Annotatsiya:** Bu mavzuda o'zbek tilini xorijliklarga o'rgatish jarayonida yondashuvlar haqida ma'lumot beriladi. Xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatishda o'ziga xos usullar bayon etilgan. Mazkur maqolada xorijliklarning o'zbek tilini o'rgatishda fonetika, grammatika, so'zlar, matnlar va nutq sifatlariga ahamiyat berish metodikasi ko'rsatilgan

**Kalit so'zlar:** O'qish kitobi, o'zbek tilining fonetik va grammatik qoidalari, ko'p millatli xalq.

**Аннотация:** В данной теме дается информация о подходах к обучению иностранцев узбекскому языку. Изложены специфические приемы преподавания узбекского языка для иностранцев. В данной статье показана методика обучения иностранцев узбекскому языку с акцентом на фонетику, грамматику, слова, тексты и качества речи

**Ключевые слова:** книга для чтения, фонетические и грамматические правила узбекского языка, многонациональный народ.

O'zbekiston ko'p millatli davlatdir. U yerda rus, qozoq, tojik, koreys, turk, qirg'iz kabi millatlar istiqomat qiladi. Bu esa yurtimizda ko'p tillilikni keltirib chiqaradi. Ko'pchilik insonlar o'zbek tilidan tashqari boshqa chet tillarini ham o'rganishga harakat qilishadi. Buning esa ijobjiy va salbiy tomonlari juda ko'p. Masalan, ikkinchi tilni o'rgangan odam o'zbek tiliga boshqa chet so'zlarni qo'shib gapiradi, natijada esa tilimizda turli xil yod so'zlar paydo bo'ladi. Bu esa tilimizning mavqeyi tushishiga sabab bo'ladi.

Xorijliklarga, ya'ni turli millat vakillariga o'zbek tilini o'rgatishda yo'l qo'yiladigan qiyinchiliklar: o'zbek tilining talaffuzi hisoblanadi. O'zbek tilidagi harflarni va o'zgaruvchanligini o'rganish xorijliklar uchun qiyin bo'lishi mumkin. O'zbek tilining fonetik tarkibi va qoidalari, talaffuz bilan bog'liq kamchiliklar xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rganishda turli xil qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. O'zbek tilini o'rganishda eng avvalo, uning tarixi va madaniyatini, tarixiy obidalarini o'rganish tilni tezroq o'rganish uchun yordam beradi. Ko'ngillilik kerak, ya'ni ular o'zlari xohlab, o'zlariga yoqqanligi uchun o'rgansalar tezroq o'rganadilar, majburan o'rgansalar o'rganish biroz qiyinroq va tez unutilarli bo'lishi mumkin, shuning uchun ular o'zlari qiziqib, xohlab o'rgansalar tez va oson o'zlashtiradilar. Undan tashqari, ular ko'proq tinglab tilni tezroq o'rganadilar, ya'ni so'zlar va iboralarni tinglovchi audio va matnlarni ko'proq tinglasalar tilni o'zlashtirish osonlashadi.

Bugungi kunda ushbu maqola bo'yicha, ya'ni xorijliklarga o'zbek tilini o'qitish yuzasidan ko'plab darsliklar chiqarilmoxda. Chet elliylarga o'zbek tilini o'rgatishga mo'ljalangan yangi "O'zbekona" darsligi ishlab chiqilgan. Qo'llanma audiolar va qo'shimcha materiallar bilan boyitilgan bo'lib, boshlang'ich Al darajani egallash imkonini beradi.



2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘sha yilning 20-oktabrida PF-6084-son Farmon e’lon qildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o‘zbek tili dunyodagi ko‘pgina mamlakatlarda o‘rganila boshladi. Jumladan, Yaponiyaning bir necha universitetlarida ham o‘zbek tili o‘qitilmoqda. Yaponlar uchun O‘qish kitobi yaratildi. Bu o‘zbek tili kitobda maktab va universitet hayotiga, oylar va fasllarga, oila hayotiga, tabiat, o‘simgilik va hayvonot dunyosiga, O‘zbekistondagi bayramlar va o‘zbek xalqining madaniyati, san’atiga va sportiga doir matnlar berilgan.<sup>12</sup>

Yana o‘zbek tilini o‘rganish uchun “Marhamat” qo‘llanmasi o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilar uchun boshlang‘ich bosqichdagi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi kitobdir. Bu kitob 5 yil davomida Toshkent Davlat Jahon Tillari Universiteti qoshidagi Tillar markazida 9 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan talabalarga o‘zbek tilini o‘rgatish natijasida vujudga kelgan. Ba’zi talabalar eshitgan yangi so‘z va jumlalarini to‘liq tushunmasa ham tezda ishlataladi. Ayrimlari esa tilning grammatik strukturasi chuqur tushuntirilmasa o‘rgatilgan yangi so‘z va jumlalarni yaxshi o‘zlashtirolmaydi. Shu sababli, ushbu kitobda tilni o‘rgatishda ma’lum bir metoddan emas, balki turli xil metodlardan foydalilanadi. Til o‘rganuvchilar bu metodlardan foydalaniib, o‘zbek tilini ishonch bilan o‘rganadilar. Ushbu qo‘llanma 5 ta bobdan iborat. Har bir bob alohida mavzulardan tashkil topgan. Til o‘rganuvchilar uchun juda foydali sanaladi.<sup>13</sup>

Bugungi kunda respublikamizda ko‘plab xorijliklar istiqomat qiladi .Biz bugungi kunda xorijliklarga qanday o‘zbek tilini o‘qitsak maqsadga muvofiq boladi?

Mamlakatimizda xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish boyicha koplab chora tadbirlar olib borilmoqda .Xorijliklar uchun ko‘plab o‘zbek tili darsliklari ishlab chiqarilmoqda.

Avvalo, xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rganish uchun o‘zbek tilini o‘rganish uchun o‘zbek xalqining qadriyati, milliy urf-odatlari, tarixi , an‘analarini o‘rgatish orqali tilga bo‘lgan hurmati oshadi, qiziqishi oshadi va tilni tezroq o‘rganadi. Interaktiv darslar o‘zbek tilini o‘rganishda juda foydali bo‘ladi. Savollar berish savolga javob berish kabi, amaliy mashg’ulotlarda qatnashish kabi. Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetida ham xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha “O‘zbekona” darsligi ishlab chiqilgan. O‘zbek tilini o‘qituvchi milliy burchak yaratilgan. Shu sababli universitetda xorijliklar uchun o‘rgatilayotgan o‘zbek tili darslarini kuzatdim. Kuzatuvim natijalaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsam, nutqda har doim qo‘llaniladigan olmoshlarni o‘rgatish, ya’ni kishilik, ko‘rsatish olmoshlari, undan tashqari ot-fe’llarni o‘rgatish kabi grammatik qoidalardan boshlab, keyin so‘zlashuv uchun kerakli bo‘lgan iboralar o‘rgatilar ekan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Bugungi kunda xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatish yaxshi rivojlanyapti .Bu esa o‘zbek tilimizni dunyo taniyotganidan dalolat beradi.Avvalo so‘zlashuv nutqini rivojlantirish grammatik ko‘nikmasini rivojlantirish rivojlanayapti. O‘zbek tilini o‘rganishda yuz berilayotgan kamchiliklar talaffuz bilan bog‘liq

<sup>12</sup> Professor Dr. Jo‘liboy Eltazarov  
Zarnigor Donaboyeva Samarqand, iyun 2013  
O‘zbekcha o‘qish kitobi  
<sup>13</sup> Nigora Sharipova, Hannekl Ykema Toshkent 2002.



kamchiliklar bartaraf etilyapti.Bu esa o‘zbek tilimizni dunyo taniyotganidan dalolat beradi.Avvalo so‘zlashuv nutqini rivojlantirish grammatik ko‘nikmasini rivojlantirish rivojlanyapti.O‘zbek tilini o‘rganishda yuz berilayotgan kamchiliklar talaffuz bilan bog‘liq kamchiliklar bartaraf etilyapti bu esa xorijliklar uchun o‘zbek tilini osonroq o‘rganishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF - 6084-son Farmoni.

2. Professor Altazarov. J, Zarnigor Donaboyeva. Samarqand, Iyun 2023 O‘zbekcha o‘qish kitobi.

3. Sharipova.N , Hanneki Ykema. Toshkent 2002.

Internet saytlari:

<https://www.gazeta.uz>

4. <https://aniq.uz>

5. <https://t.me/MohirAIChatBot>